

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

UMUMIY O’RTA TA’LIM VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARIDA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA O’QITISH METODIKASI.

Turayev Jakhongir Anvarovich

Buxoro Davlat Universiteti pedagogika institute Harbiy ta’lim fakulteti boshlig’ining o’rinbosari

Annotatsiya: Ummumiy o’rta ta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo’nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risidagi qaror va mакtabda o’quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida o’qitish metodikasi.

Kalit so’zlar: Interfaol metodlar, Milliy gvardiya tizimi uchun kadrlarni uzluksiz va maqsadli tayyorlaydigan harbiy vatanparvarlik yo’nalishiga ishtisoslashtirilgan sinflar faoliyati.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3392-son qaroriga muvofiq, o’sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ona Vatanga sadoqat va uning mustaqilligini himoya qilish bo’yicha burch tuyg’usini shakllantirish, harbiy xizmatga hurmat tuyg’ularini singdirish, shuningdek, Respublika oliy va oliy harbiy ta’lim muassalariga o’qishga kirish uchun yetarli bilimga ega bo’lgan iqtidorli yoshlarni tizimli ravishda tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3392-son qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga biriktirilgan 1-ilovada ko’rsatilgan umumiy o’rta ta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda (keyingi o’rinda – mакtablar) harbiy vatanparlik yo’nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar (keyingi o’rinda – ixtisoslashtirilgan sinflar) faoliyat yuritayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ixtisoslashtirilgan sinflarda o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish uchun zarur shaaroitlar yaratish hamda maxsus harbiy - texnik va quroq - aslahalardan foydalanish bo’yicha amaliy mashg’ulotlar O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Milliy gvardiyasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

So’zimizni barchamizga ma’lum va mashhur ibora bilan davom ettirimish mumkin: “Maktab ochish turmani yopishdir”, - atoqli fransuz adibi Viktor Hugo. Ya’niki mакtab ochilgan joyda ta’lim bo’ladi, ta’lim bor joyda esa o’quvchilarning ma’naviyati yuksaladi. Har tomonlama yetuk va barkamol avlod esa vatanning buguni va ertasidir. Ta’lim va tarbiya masalasi esa bir- birini to’ldirib, biri ikkinchisini taqozo qiluvchi tushunchalardir.

O’quvchilarga bu tushunchani singdirish orqali ular ongida vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mehr-oqibatlilik, mas’uliyalilik,

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab shakllantira borish va shu bilan birgalikda ma'naviy tarbiyani oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof – muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni hamol toptirishda o'z aksini topadi.

Aytib o'tish joizki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi safini yanada to'ldirish maqsadida yoshlarni umumiy o'rta ta'lim mакtabida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, Respublikamizning har bir viloyatida 4 tadan, umumiy hisobda 56 ta umumiy o'rta ta'lim maktabalarida Milliy gvardiya tizimi uchun kadrlarni uzlusiz va maqsadli tayyorlaydigan harbiy vatanparvarlik yo'nalihsiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Va o'z o'rnida mакtab bitiruvchilari o'z faoliyatlarini idoraviy akamedik litseylarda, ya'ni Temurbeklar maktabida, keyinchalik esa Milliy gvardiya Harbiy-texnik institutida yoki respublikamizdagi boshqa oliy harbiy ta'lim muassalarida o'qishi va kelajakda o'qishni bitirgan ofitserlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi saflarini to'ldirish rejalashtirilgan.

Ma'nан boy, qadriyatlarimizga an'ana va urf--odatlarimizga sodiq, jismonan baquvvat va intelektual salohiyatli bo'lgan yoshlarni jalb etishga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan ilk kundan e'tibor qaratila boshlangan.

Xalqning tinch hayoti va mamlakat havfsizligi kafolati, mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ygan yosh mamlakat mustaqiligini qo'riqlaydigan Qurolli kuchlarimizning asosiy vazifasidir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining navbatdagi yo'nalihi yoshlarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish. Bu jismoniy chidamlilik, og'ir jismoniy vazifalarini kundalik harbiy xizmat hamda jangovar sharoitda ko'tara olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Jismoniy o'quv-nafaqat o'z – o'zidan muhim bo'lgan tetiklik va optimizm manbasi, balki Vatan mehnati va himoyasiga tayyorlik, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish shaklidir. Bog'cha va mакtab yillari – butun umrga poydevori, ya'ni sog'liq asoslarini singdiruvchi paytdir. Harakat, gimnastika, sport o'yinlari yoshlarning ijobiy xislatlarini shakllantiradi. Mardlik, iroda, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish kabi xislarni tarbiyalaydi. Bolalikda yo'l qo'yilgan jismoniy tarbiyadagi kamchiliklar, murakkab va ba'zida esa umuman katta yoshda to'ldirib bo'lmaydigan jarayondir. Zamonaviy yoshlarning jismoniy tayyorgarligi zamonaviy ishlab chiqarish hamda Qurolli Kuchlar safida xizmatga bo'lgan talablarga to'laqonli javob bermaydi. Bu o'z o'rnida yoshlarning aqliy, jismoniy, axloqiy – ma'naviy va ruhiy holatlari bilan bog'liq bo'lgan kasalligidan xalq xo'jalik sohalari ham katta zarar ko'rmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbilanuvchilarini harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda va faoliyatini rivojlanitirishda quydagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

Dastlabki ahamiyat qaratiladigan bosqich bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarini harbiy sohaga qiziqishlarining usul va vositalarini aniqlash ular ustida muntazam ish olib borishdan iborat.

Ikkinchidan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini doimiy tashkil qilishning ahamiyati, chunki tarbiyalanuvchilar har bir jarayonni amalda o‘z ko‘zlar bilan ko‘rsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa tarbiyalanuvchilarini qobiliyatini shakllanishiga vatanparvarlik hissini rivojlanishiga poydevor vazifasini o’taydi.

Uchinchidan, Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy qismlariga tashrifini uyuştirish, harbiy muzeylear bilan yaqindan tanishtirish ularni qiziqishini oshirishga yo‘naltirilgan har xil harbiy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash chora-tadbirlar rejasi ishilab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- yozgi oromgohlar tarbiyalanuvchilari uchun «Men harbiy bo‘laman» mashg‘ulotlarini tashkil etish;

- tarbiyalanuvchilarining mard, jasur va pahlavon yigit bo‘lishga bo‘lgan xohish va havaslarini oshirishga va ona-yurtga sodiq farzand bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan «Jaloliddin bahodirlari nomli sport o‘yinlarini tashkil etib borish;

- Ularni harbiy-texnika vositalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

- maktabgacha ta’lim bo‘limi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan harbiylar ishtirokida bolajonlar uchun turli tadbirlarni tashkil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish lozim.

- o‘quvchilarning ona vatanga sodiq farzand bo‘lib yetishishi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan quydagi mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish lozim;

- Ertak va hikoyalar aytib berish orqali harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish.

- Ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog‘liq mavzulardagi she’r va qo‘schiqlarni yod oldirish;

- bolalarining tasavvurini kengaytirishga maqsadida rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlardan tashkil etish orqali ularni ma’naviy rag‘batlantirish;

- harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o‘yinlar o‘tkazish;

- harbiy muzeylear va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiyalar uyuştirish maqsadlidir.

Bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quydagi muammolar asoslidir:

1) Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida mavjud harbiy jihozlarning harbiy maketlar, harbiy mashg‘ulot maydonchalari va harbiy o‘ynichoqlaning mavjud emasligi yoki yetishmasligi.

2) Tarbiyalanuvchilarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar, didaktik materiallar va mashg‘ulot ishlanmalarining mavjud emasligi yoki yetishmasligi.

3) Tarbiyalanuvchilarda harbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish borasida harbiylar bilan uchrashuvlar, tadbirlar va tarbiyalanuvchilarni harbiy qismlar, harbiy muzeylarga tashriflarining kamligi, tarbiyalanuvchilarda harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishni va ko‘nikmani yaxshi shakllanmasligiga asosiy sabab bo‘la oladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo‘lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni mактабгача та’лим ташкilotlari tarbiyalanuvchilarida rivojlantirish jismoniy tarbiya va sport o‘ynlarining roli juda muhimdir. Tarbiyalanuvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismoniy va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir. Mактабгача та’лим ташкilotlarida tarbiyalanuvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta’lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. «Ilk qadam » davlat dasturi. - T., 2018.
2. Mактабгача yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.
3. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2-jild. -T.: «O‘zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: «o‘zbekiston», 1996.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: o‘qituvchi, 1992.
6. Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. -T.: Fan, 1994.-135b.
7. Qurbanov Sh., E. Seytxalilov va boshqalar. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. Toshkent, “Akadememiya” 2002